

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAMARAJABOV ODIL ELMURZAYEVICH

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING RAQAMLI
KOMPETENTLIGINI BULUTLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Mamarajabov Odil Elmurzayevich

Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar
vositasida takomillashtirish 3

Мамаражабов Одил Элмурзаевич

Совершенствование цифровой компетентности будущих учителей
посредством облачных технологий..... 23

Mamarajabov Odil Elmurzayevich

Improving the digital competence of future teachers through cloud
technologies..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAMARAJABOV ODIL ELMURZAYEVICH

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING RAQAMLI
KOMPETENTLIGINI BULUTLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.Phd/Ped4358 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.iirpo.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Umit Yuldashevich

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saidova Moxinur Jonpo'latovna

pedagogika fanlari doktori, professor

Bekchanova Shoirra Bazarboevna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat univevsiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil "____"-_____soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-84-34; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu.kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185. Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____"-_____kuni tarqatildi.
(2024-yil "____"-_____dagi ____-raqamli reyestr bayonnomasi).

N.A.Muslimov

ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

Z.N.Mamarajabova

ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi

p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirishning kreativ modulli texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Nist Cloud Compyutering Standartlarida bulutli hisoblash standartlarini ishlab chiqish, ulardan foydalanish sifatini yaxshilash, moliyaviy xarajatlarni kamaytiradigan xavfsiz va samarali ishlashini ta'minlash, shuningdek, bulutli texnologiyalar asosida an'anaviy axborot tizimi va ilovalar modellari o'rnini bosadigan yoki ularni takomillashtirishga qaratilgan dasturiy vositalarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bulutli hisoblash standartlari va ko'rsatmalarini ishlab chiqish asosida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini shakllantirish, ulardan foydalanish tizimi samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, xizmat ko'rsatish modelini takomillashtirish, bulutli xizmatlarga o'tishda katta operatsion va boshqaruv xatarlarining oldini olish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Raqamli texnologiyalar bo'yicha qaror qabul qiluvchilarga turli bulutli xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning ishini rivojlantirish, bulutli xizmatlardan foydalanishda axborot xavfsizligini ta'minlash, bulutli xizmatlardan foydalanish monitoringini yuritish va nazorat qilish, foydalanuvchilar ishonchini qozonish talablari, baholash ishlarini bajarish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda bulutli texnologiyalardan iqtisodiyot tarmoqlari, boshqa sohaslar, jumladan, ta'lim sohasida foydalanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Bulutli texnologiyalarni joriy etish, ularni takomillashtirish sohasida xorijiy ta'lim muassasalarining ilg'or tajribalarini o'rganish, bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirokida ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish muhim vazifalar etib belgilangan. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan ustivor yo'nalish sifatida foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-son "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, shuningdek, mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining turli idoraviy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda axborot kommunikatsion texnologiyalarining o'rni va ta'lim mazmunini rivojlantirish borasida A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, M.Aripov, F.M.Zakirova, N.I.Taylaqov, S.S.G'ulomov, U.Y.Yuldashev; bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish borasida B.S.Abdullayeva, M.E.Mamarajabov, N.N.Muslimov, P.Q.Xolmatov, K.Atamuratov, A.A.Xalikov, R.G.Isyanov, O.A.Qo'ysinov, H.Sh. Qodirov; bulutli texnologiyalar va ulardan turli sohalarda foydalanish bo'yicha R.H.Ayupov, A.O.Mirzayev, G.Murodova, M.K.Djurayev, L.S.Isroilova, T.E.Delov, Sh.B.Bekchonova va boshq. ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida bulutli texnologiyalarning roli va ahamiyati bo'yicha Ye.V.Soboleva, T.N.Suvorova, Ye.O.Podnavoznova, N.Y.Koroleva, O.A.Abdulina, V.A.Dovgal, L.S.Galkina; bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda bulutli xizmatning roli va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha T.Y.Stepanova, M.V.Vasyukova, V.G.Shevchenko, L.V.Shmelkova, T.B.Makarova, D.A.Makarov ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xorijlik olimlar Z.Hasibuan, N.Selviandro V.Kasiolas, E.Ratushnaya, V.Kovalchuk, K.Redeker, K.Zhao, E.F.Zeer, R.A.Almajalid, Ye.I.Ogarev, T.Kroksmark, H.Pardeshi, Yu.G.Tatur, N.P.Yachina, I.A.Zimnyaya, E.F.Zeer, G.Aleksanyan, G.Ottestad, M.Kelentrich, Y.A.Qasem, R.Abdullah va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida bulutli texnologiyalar hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi masalalari atroflicha o'rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi PZ-20170923121 - "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2020-2022-yy).

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar asosida rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligi samaradorligini bulutli texnologiyalar vositasida baholash mezonlari va darajalarini aniqlashtirish asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirish jarayoni belgilangan, tajriba-sinovda Toshkent davlat pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika institutining 327 nafar talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy, metodik, elektron manbalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil etish, oliy ta'lim muassasalaridagi interfaol pedagogik tajribalarni o'rganish, anketa, suhbat, kuzatish, test, loyihalash, ekspert baholash, tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari ilmiy-metodik, tizimli-informatsion yondashuvlarning idientiv xususiyatlarini vertikal moslashtirishga qaratilgan mobillik, mediakognitivlik hamda integrativlikni ta'minlash tamoyillarini pedagogik jarayonga maqsadli transformatsiyalash va kollaboratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirish jarayoni xususiy, umumiy va gibrid hisoblash tizimlariga asoslangan modellarni realasion-ierarxik ma'lumotlar bazasiga frontal moslashtirish va maqsadli diversifikatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirish samaradorligi dasturiy ta'minotlardan foydalanish natijadorligini oshirishga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi-integrativ texnologiyalarni tizimli qo'llash, franchayzing va validatsiya kabi masofaviy ta'lim modellarini ta'lim maqsadlariga mos kompakt unifikatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirish mezonlari baholashning servis vaqtini muntazam hisobga olish, saqlash hajmini provayderlarga bog'liq va bog'liq bo'lmagan hollardagi

didaktik jarayonlarning kognitiv- motivasion, reflektiv-kreativ mazmuniga vektorli-dinamik tadqiq etishga barqaror ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantiruvchi mazmun, raqamli texnik va dasturiy ta'minotlarni amalda qo'llash kompetentligini ilmiy, tizimli, informatsion, sinergetik yondashuvlar va mobillik, mediakognitivlik va integrativligini ta'minlash tamoyillarini hisobga olgan holda "Raqamli texnika va dasturiy ta'minot" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish mazmunini hisobga olgan holda realaksion, iyeararxik ma'lumotlarni elektron taqdim etuvchi "Kompyuter grafikasi va veb dizayn" fanidan elektron o'quv qo'llanmasi yaratilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida rivojlantiruvchi metodik ta'minot (fan dasturlari (sillabus) va integrativ texnologiyalarni qo'llashga oid o'quv-uslubiy majmua yaratilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligi rivojlanganligini baholash mezonlari va darajalari ishlab chiqilib, fanlar mazmuniga singdirilgan, amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanilgani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari yordamida tasdiqlangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarning bulutli texnologiyalar vositasida raqamli kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilgani, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish modelining ishlab chiqilgani va amaliyotga joriy etilgani, bulutli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantiruvchi metodik ta'minot yaratilgani va bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishni baholashning kognitiv, motivatsion, reflektiv va kreativ mezonlari va ularning har biriga mos reaktiv, aktiv, interaktiv kabi baholash darajalari ilmiy asoslangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantiruvchi mazmun, raqamli kompetentligini rivojlantiruvchi (Fan dasturlari (sillabus) va integrativ texnologiyalarni qo'llashga oid o'quv-metodik majmua, "Raqamli texnika va dasturiy ta'minotlar" nomli o'quv qo'llanma, raqamli kompetentligini rivojlantirish mazmunini hisobga olgan holda realaksion, iyeararxik ma'lumotlarni elektron taqdim etuvchi elektron o'quv qo'llanma, raqamli kompetentlik rivojlanganini baholash mezonlari va darajalari kabi metodik ta'minotni mustahkamlashga xizmat qilishi va oliy ta'lim talabalarini tayyorlash bo'yicha nazariy va metodik tavsiyalar keltirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalari vositasida takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari ilmiy-metodik, tizimli-informatsion yondashuvlarning idientiv xususiyatlarini vertikal moslashtirishga qaratilgan mobillik, mediakognitivlik hamda integrativlikni ta'minlash tamoyillarini pedagogik jarayonga maqsadli transformatsiyalash va kollaboratsiyalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Ta'limda axborot texnologiyalari" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug'i asosida berilgan 418-174 nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini egallash darajasini oshirish imkoni kengaytirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirish jarayoni xususiy, umumiy va gibrid hisoblash tizimlariga asoslangan modellarni realasion-ierarxik ma'lumotlar bazasiga frontal moslashtirish va maqsadli diversifikatsiyalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Raqamli texnika va dasturiy ta'minot" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-son buyrug'i asosida berilgan 68-682 nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning bulutli texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirilishiga sharoit yaratilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirish samaradorligi dasturiy ta'minotlardan foydalanish natijadorligini oshirishga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi-integrativ texnologiyalarni muntazam qo'llash, franchayzing va validatsiya kabi masofaviy ta'lim modellarini ta'lim maqsadlariga mos kompakt unifikatsiyalash asosida takomillashtirishga oid va tavsiyalar "Ta'limda axborot texnologiyalari" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug'i asosida berilgan 418-174 nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini tadbqiq etish samaradorligi oshgan;

bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirish mezonlari baholashning servis vaqtini muntazam hisobga olish, saqlash hajmini provayderlarga bog'liq va bog'liq bo'lmagan hollardagi didaktik jarayonlarning kognitiv- motivasion, reflektiv-kreativ mazmuniga vektorli-dinamik tadbqiq etishga barqaror ustuvorlik berish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "Raqamli texnika va dasturiy ta'minot" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-son buyrug'i asosida berilgan 68-682 nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning raqamli kompetensiyalarini egallash tayyorgarligini baholash mezonlarini aniqlashtirish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo va bulutli texnologiyalar raqamli kompetentlikni rivojlantiruvchi vosita sifatida qaralib, bu vositadan bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantiruvchi pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan.

Bugungi kun bo‘lajak o‘qituvchisini tayyorlash doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda ish olib borishga moslashtirish, zamonaviy innovatsion muhitlarda ish olib borishga o‘rgatish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida kasbiy sifatleri takomillashtirilishni talab qiladi. Barcha sohalardagi kabi ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mutaxassislarining, aynan olganda esa axborot texnologiyalari sohasidagi yangiliklar ko‘payishi o‘qituvchilar va bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot kommunikatsiya sohasidagi kompetentlik darajasidan oldinga o‘tib ketmoqda. Mamlakatimizda ta’limni rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta’lim tizimini modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o‘quv jarayonini axborotlashtirish va raqamlashtirish, axborot muhitlarini yaratish, raqamli texnologiyalarda ishlash kompetentligini rivojlantirish muhim vazifalardan biriga aylanib qolmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xarita”sida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi bulutli texnologiyalar va ularning bugungi kundagi o‘rni, “bulutli” hisoblashlar asosida ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta’minlash; “bulutli” xizmatlarini taqdim etishning turli xil modellarini amalga oshirish uchun dasturiy ta’minot yaratish bo‘yicha ilmiy ishlarni olib borish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Bugungi kunda o'qituvchilarning bilimlari, kompetensiyalarini doimiy yangilash, ular faoliyat yuritayotgan ta'lim tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim bo'ladi. Ta'lim tizimini kuchaytirilgan tarzda modernizatsiyalash bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuvga tayanib, bu yondashuv nafaqat kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi, balki bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari yuzaga chiqarilishini ham ko'zda tutadi. Mualliflar kompetensiya "harakatdagi bilimlar" bilan bog'liq bo'ladi, degan fikrlarni ilgari suradi. Shunday ekan, kompetensiyalar va kompetensiyaviy yondashuv amaliy tayyorgarlikka yo'naltirilgan ta'limning maqsadlari va vazifalarini hal qilishga qaratilgan. Bunda I.A.Zimnyaya, A.V.Xutorskoy va Yevropa ta'lim fondining "Mehnat bozori, ta'lim dasturlari va o'quv rejalari standartlarini ishlab chiqish atamalari glossariysi"ga muvofiq, kompetensiyalarni ta'riflashning to'rt modeli (shaxs parametrlariga asoslangan, faoliyat natijalarini boshqarishga asoslangan, faoliyatni va topshiriqlarni bajarishga asoslangan, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishga asoslangan) tahlil qilingan.

Kompetensiyaviy yondashuv g'oyalari bir qancha xorijiy olimlarning (V.I.Baydenko, A.M.Aronov, A.G.Bermus, V.A.Bolotov, V.Gutmaxer, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, V.V.Krayevskiy, O.Ye.Lebedev, Dis.Raven, Y.G.Tatur, A.V.Xutorskoy va boshqalar) ishlarida ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, kompetensiya va raqamli kompetentlik bo'yicha N.A.Muslimov, A.A.Omonov, N.N.Mirjanova, P.Q.Xolmatov, R.K.Atamuratov, Sh. Burxanova kabi pedagog-olimlarning ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtai-nazardan yanada kengroq va sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o'rganib chiqilgan.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirish natijasida ta'lim mazmuni, Davlat ta'lim standartlari, fan o'quv dasturlarini takomillashtirish informatika va axborot texnologiyalari faniga oid kompetentlikni (AKT-kompetentlikni) kiritishni taqozo etadi.

Kompetensiya – ko'zlangan natijalarga erishish uchun bilim, ko'nikma va malakalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish qobiliyati. Kompetentlik o'qituvchining o'ziga va faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatini qamrab oluvchi mos kompetensiyalarni egallashdan iborat. Kompetensiyaviy yondashuv – bu ta'lim natijasiga urg'u beradigan yondashuvdir. Bunda ta'lim natijasi o'zlashtirgan axborotlar yig'indisi emas, balki kishining turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidan iborat bo'ladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – talabalarning ta'lim jarayonida fanga va kasbiga oid egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir degan xulosalarga kelindi.

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan insonning kundalik hayoti va ishlab chiqarish munosabatlari o'zgarimoqda, iqtisodiyot va ta'lim tubdan o'zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat vosita, balki zamonaviy insonning yashash muhiti bo'lib, u yangi imkoniyatlarni ochadi: istalgan qulay vaqtda o'rganish, uzlyuksiz ta'lim, elektron resurslardan foydalanuvchilardan tortib, shaxsiy

ta'lim yo'nalishlarini shakllantirish qobiliyatidir. Shu munosabat bilan o'quv jarayonini raqamli muhitda tashkil etish, raqamli texnologiyalardan o'z kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikma va malakalariga ega bo'lgan "raqamli avlod" ning xususiyatlari, uni o'qitish va tayyorlash usullarini biladigan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash masalalari ko'rib chiqildi.

Shunday qilib, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining tarkibi yangi komponent – raqamli kompetensiya bilan to'ldiriladi va o'qituvchining kasbiy mahorati darajasi bevosita ushbu kompetensiyaga egalik darajasiga bog'liq. Ushbu muammoni hal qilish uchun bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kasbiy kompetensiyani rivojlantirish kerak.

G.A.Soldatova, M.Mamarajabov, N.P.Yachina, O.G.Fernandes, G.Ottestad, M.Kelentrich va boshqa olimlarning raqamli kompetensiyaga oid ishlari tahlil qilindi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, "o'qituvchining raqamli kompetensiyasi" tushunchasi to'liq o'rganilmagan (bu hodisaning aniq ta'riflari mavjud emas, uning tuzilishi kam o'rganilgan). Tadqiqotida o'qituvchining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish bulutli texnologiyalardan foydalanish jarayoni degan taklif kiritildi.

Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli kompetensiyasi bu raqamli texnologiyalarni takomillashtirish sharoitida doimiy ravishda yangilanib turadigan, o'qituvchining raqamli ta'lim muhitida kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar to'plami sifatida qaralib, ushbu konsepsiyaning tarkibiy qismi sifatida bulutli texnologiyalardan foydalanish jarayoni taklif qilindi.

Raqobatbardosh o'qituvchini tayyorlash uchun ta'lim tizimini raqamli loyihalash, o'qituvchi va talabning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, maxsus kasbiy yo'naltirilgan raqamli muhit yaratish, zaruriy raqamli vositalardan foydalanish kerak bo'ladi. Bu muhitni raqamli texnologiyalarni bilishning faol subekti sifatida belgilash; uning o'zini o'zi tarbiyalashga, o'zini o'zi rivojlantirishga yo'naltirilganligi; talabning subektiv tajribasiga tayanish, uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, kelajakdagi kasbiy faoliyat kontekstida o'qitish kabi tamoyillarga muvofiq ishlashi lozim.

Raqamli kompetensiyani rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimida olingan bilim, ko'nikma va malakalar miqdori bilan cheklanib qolmaslik kerak. Bu bilim, ko'nikma va malakalar o'qituvchining ta'lim tizimidan tashqarida, jumladan, o'zini o'zi tarbiyalash jarayonida o'zlashtirgan bilimlarining keng doirasi bilan bog'lanishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga oid tahlil natijalari asosida axborot ta'lim muhitini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyot konsepsiyasini amalga oshirishda tavsiya etilgan zamonaviy va istiqbolli texnologiyalaridan biri bulutli texnologiyalar ekani ta'kidlandi. Bulutli texnologiyalar sohasida AKT kompetensiyasini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida bulutli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni ishlab chiqish va tizimlashtirish; o'quv jarayoniga joriy etish maqsadida bulutli texnologiyalar asosida tarmoq xizmatlarini tanlashga o'rgatish; bulutli xizmatlar bilan ishlash ko'nikmalarini egallash; bulutli texnologiyalarga asoslangan ta'lim faoliyatini tashkil etish va

qo'llab-quvvatlashning uslubiy ta'minotini ishlab chiqish bo'yicha o'qitish; elektron o'quv materiallarini ishlab chiqishda bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlaridan foydalangan holda loyihalash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish; bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlaridan foydalangan holda tarmoq o'zaro ta'sirda professional ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish ta'kidlangan. Shuningdek, ushbu yondashuv bulutli texnologiyalar sohasida nazariy o'quv materialini o'qitish; bulutli texnologiyalar asosidagi turli tarmoq xizmatlari bilan tanishish; ushbu xizmatlar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini egallash; bilim, ko'nikma va malakalardan o'quv faoliyatida maqsadli foydalanish; o'quv jarayonini tashkil etishda ulardan foydalanish uchun bulutli texnologiyalar asosida tarmoq xizmatlarini rejalashtirish va tayyorlash; ta'lim faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash doirasida bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlaridan foydalanishning uslubiy ta'minotini ishlab chiqish kabi muammolarni hal qilishi ta'kidlangan.

Bulutli texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashni tashkil etish, fanlararo aloqalarni o'rnatishda ham konseptual apparatlar darajasida, ham vositalar darajasida yordam beradi, bu ta'limni raqamlashtirish sharoitida ayniqsa katta ahamiyatga ega. Ko'pgina vazifalar va tarmoq resurslari allaqachon bulutli texnologiyalarning tarkibiy qismi sifatida o'quv jarayoniga kiritilgan va zamonaviy sivilizatsiyaning eng muhim texnologik yutuqlaridan biri sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash uchun asos sifatida qaralmoqda.

Bulutli texnologiyalar (bulutli hisoblash Cloud Computing) ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash vositalaridan masofadan foydalanishni o'z ichiga olgan xizmatlari ekani e'tirof etilib, bulutli xizmatlar yordamida turli guruhlarining huquqlarini saqlab qolgan holda istalgan darajadagi va har qanday kuchdagi axborot resurslariga kirish, Internetga ulanish va veb-brauzer yordamida manbalarga murojaat qilish, ma'lumotlarni qayta ishlash, geografik xizmatlar va aql xaritalari, 2D va 3D modellar bilan birgalikda ishlash va bulutda dasturlash va IOT (Internet of Things) vazifalarini ham hal qilishga yordamchi vosita ekani ta'kidlangan.

Bulutli xizmatlarni uchta asosiy toifaga bo'lish mumkin: IaaS (Infrastructure as a Service) – infratuzilma xizmat sifatida; PaaS (Platforma as a Service) xizmat platformasi sifatida; SaaS (Software as a service) – dasturiy ta'minot xizmat sifatida.

IaaS (Infrastructure as a Service) bu shaklda kompyuter infratuzilmasini taqdim etish va virtualizatsiya xizmati sifatida foydalanish talab etiladi.

PaaS (Platforma as a Service) veb-illovalarni xizmat sifatida ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish, joylashtirish va saqlash uchun integratsiyalashgan platformani taqdim etadi. Microsoftda ishlab chiqilgan va bir nechta komponentdan iborat tuzilishga ega.

SaaS (Software as a service) – dasturiy ta'minotni sotish, biznes qilish modelidir. Ushbu dasturiy ta'minotdan foydalanib, ishlab chiquvchi, ya'ni sotuvchi,

veb-ilovani ishlab chiqadi va uni mustaqil ravishda boshqaradi, mijozlarga Internet orqali dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatini beradi

Ta'limda bulutli texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchining rahbarligida yoki mustaqil ravishda talabalar va o'qituvchilar uchun shaxsiy hisoblar, elektron kundaliklar va jurnallar, interaktiv qabul xonasi, foydalanuvchilar ma'lumot almashishi va uni qidirishi mumkin bo'lgan tematik forumlarni nomlash mumkin, bu yerda ma'lum vazifalar, ta'lim masalalarini hal qilish mumkinligi va undan foydalanishda mashhur bulutli provayderlar va boshqalar yordam berishi ta'kidlangan. Bunda o'qituvchi va talabalarga axborot bilan ishlash va ulardan kerakli ma'lumotlarni topishda yordam berish, o'qituvchi esa ta'lim muammolarini hal qilish uchun zamonaviy virtual texnologiyalardan foydalanishda malakali bo'lishini talab qiladi. Bulutli makondan foydalanishning ochiqligi va qulayligi fuqarolik, axborot makonida mas'uliyat, boshqalarning intellektual mehnatini hurmat qilish, bulutli axborot vositalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha hujjatlarni o'rganish, bezorilik va tajovuzlarning oldini olishga alohida e'tibor berishni talab qiladi. Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda bulutli texnologiyalar vosita sifatida quyidagi vazifalarni bajarishga yordam beradi.

Bulutli texnologiyalar vositalari (resurslari) sifatida: infografika vizualizatsiya namunasi sifatida, obyektlar to'plami (matn, grafik, raqamlar) bilan jamoaviy ishlash; matn ma'lumotlarini yuborish; virtual va onlayn hamkorlik; onlayn interaktivlikni amalga oshirish; interaktiv bulutli kitoblardan foydalanish; interaktiv plakatlar; interfaol didaktik materiallar; multimedia insholari, kitoblar, jurnallardagi uzoq nashrlar bilan solishtirish; o'qituvchini ko'p funksiyali ishlarni tayyorlash; media-pedagog; onlayn video tahrirlash; video tahrirlash ilovalari, o'lchovli aql xaritalari; materiallarni ommabop e'lon qilish; ta'lim interaktiv resurslari, o'yinlashtirish yoki o'yinlashtirishdan foydalanishga qaratilgan didaktik materiallar kabilar olinib ularning dasturiy vositalari va unda hosil bo'ladigan raqamli kompetentlik tasniqlariga to'xtalib o'tildi.

Yuqoridagilarga asoslanib, oliy ta'lim muassasalari bulutli hisoblashlar uchun tobora ko'proq ilovalarni faol ishlab chiqish va topishni boshladi, amaliy jihatlar fundamental jihatlardan sezilarli darajada o'zib ketdi, shuning uchun o'quv dasturlarida ushbu yo'nalishni o'rganishga tayyor bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash zarur; bulutli hisoblash, umuman olganda, turli tarmoqlar, serverlar va ish stansiyalarining turli tizimlar bilan o'zaro bog'lanishini ifodalaydi, ular uchun geterogen axborot tizimlarining o'zaro ta'siri muammosi eng dolzarbdir. Masofaviy ta'lim kontekstida talabalar bilimni oshirish uchun umumiy bulut platformalaridan foydalanish to'g'ri bo'lar edi, bu boshqa universitetlarning mavjud ma'lumotlari bilan ma'lumotlar yetishmasligini qoplaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida takomillashtirish metodikasi”** nomli ikkinchi bobida bulutli texnologiyalar vositasida raqamli kompetentligini rivojlantirish bosqichlari va mazmuni, raqamli kompetentligini takomillashtiruvchi modeli,

mazmuni bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasi bayon etilgan.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga qo‘llash tayyorlanadigan bo‘lajak mutaxassislar oldiga muhim talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa ta‘limni raqamli ta‘limga transformatsiyalash va ta‘limni kollaboratsiyalash (hamkorlikda, jamoaviy ishlashni ta‘minlash) asosida rivojlantirishni ta‘minlaydigan bulutli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday texnologiyalarni tanlash uchun asos sifatida axborotlashgan yoki raqamli jamiyatda faoliyat olib boradigan mutaxassislarini tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Raqamli asrda bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish; axborotni qidirish, qayta ishlash va tahlil qilish kompetensiyalari, mediasavodxonligini rivojlantirish; muvaffaqiyatli jamoaviy ish, hamkorlik, ishbilarmonlik, muzokaralar uchun muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi.


Ayniqsa loyihalar ishlab chiqishda interfaol kalendar va wiki, interaktiv doska va onlayn taqdimot, infografika va mental xaritalar kabi xizmatlardan foydalanish jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Bulutli texnologiyalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga va ularni ta‘lim jarayonida qo‘llashga qaratilgan uning tuzilmasi va mazmuni, tarkibiy qismlari, o‘qitish usullari, shakllari va vositalarini taklif qilindi; virtual ijtimoiy ta‘lim muhitidagi faoliyatga kasbiy tayyorgarlik doirasida raqamli kompetensiyalar darajalarini shakllantirish mezonlarini aniqlashga qaratilgan modeli ishlab chiqilgan(1-rasm).

Taqdim etilayotgan model kompetensiyaga asoslangan, ilmiy metodik, tizimli sinergetik, informatsion yondashuvlarga ko‘ra, har qanday kompetensiya bosqichma-bosqich, maxsus darajada shakllantiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchi bu kompetensiyadan amaliy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda, kasbiy kompetensiyani namoyon etishda foydalanishiga olib keladi.

Shunday qilib, agar o‘qituvchi virtual ijtimoiy va ta‘lim muhitida ishlashga tayyor bo‘lsa va raqamli texnologiyalardan foydalanish sohasidagi turli muammolarni hal qila olsa (bulutli, masofaviy, mobil, virtual), u bulutli texnologiyalardan foydalanish sohasidagi kasbiy kompetensiyasiga ega hisoblanadi.

O‘qituvchining raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar vositada rivojlantirish bo‘yicha taklif etilayotgan modelning tavsifi quyidacha: Maqsadli blokda bulutli texnologiyalar vositasida raqamli kompetensiyalari rivojlangan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida har bir sohaning davlat ta‘lim statndartlari va malaka talablari, shuningdek o‘quv rejalari asosida bugungi kun ijtimoiy buyurtmasi bajarilishiga harakat qilinadi. Tashkiliy metodologik blokda yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan yondashuvlar (ilmiy metodik, tizimli sinergetik, informatsion) asosida tahlil qilinib, tadqiqotni o‘quv jarayoniga tadiq etishning mobillik, mediakognitivlik va integrativlik, virtuallilik tamoyillariga e‘tibor qaratildi va bulutli texnologiyalarning xususiy, umumiy va gibrit hisoblash tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini bulutli texnologiyalar voitasida rivojlantirish modeli

Tashkiliy-mazmunli blokda bo'lajak o'qituvchilarga "Ta'limda axborot texnologiyalari" hamda "Raqamli texnika va dasturiy ta'minot" fanlarini o'qitish jarayonida: bulutli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni ishlab chiqish va tizimlashtirish; bulutli texnologiyalar asosida tarmoq xizmatlarini ta'lim jarayoniga joriy etish maqsadida tanlashga o'rgatish; bulutli xizmatlar bilan ishlash ko'nikmalarini egallash; bulutli texnologiyalar asosida o'quv faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlashning uslubiy ta'minotini ishlab chiqish bo'yicha o'qitish; elektron o'quv materiallarini ishlab chiqishda bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlaridan foydalangan holda loyihalash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish; bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlaridan foydalangan holda tarmoq o'zaro ta'sirida kasbiy-shaxsiy fazilatlar va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish kabi vazifalar nazarda tutiladi. Natijaviy blokda bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligining o'sish dinamikasini aniqlash maqsadida raqamli kompetensiyalarining rivojlanishini ko'rsatuvchi baholash mezonlari va baholash darajalari aniqlandi va ularning natijalari olindi.

Ishlab chiqilgan model asosida raqamli kompetensiyalarni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish va ilmiy-metodik tavsiyalar berish maqsadida raqamli kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari va mazmuni ochib berilgan.

